

## MUSIQA SAN'ATIDA ROMANTIZM OQIMINING G'OYAVIY MAZMUNI VA BADIY USLUBINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

**Axrorova Munajat Mashraf qizi,**  
Jizzax davlat pedagogika instituti,  
Musiqqa madaniyati fakulteti,  
Musiqqa san'ati kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada musiqqa san'atida romantizm oqimining g'oyaviy mazmuni va badiiy uslubining o'ziga xos xususiyatlari yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Romantizm, vals, mazurka, fantaziya, ballada, skerco, simfonik poema, programmali (dasturli) simfoniya janrlari, kuy, garmoniya, tembr.

XVIII asrda G'arbiy Yevropa san'atidagi klassitsizm oqimi o'z o'rnini XIX asrda yangi oqim bo'lgan romantizmga bo'shatib berdi. Ikki asr chegarasida sodir bo'lgan ijtimoiy o'zgarishlar san'atdagi oqimlarning ham o'zgarishiga sabab bo'ldi. Insoniyat tarixida yangi davrni boshlab bergan Buyuk fransuz revolyusiyasi ma'naviyatining o'sishiga olib keldi. Demokratik qadriyatlarining g'alaba qozonishi uchun intilish aynan shu davrga xosdir. Bu davrda adolat qonunlarining tantana qilishi, inson dunyoqarashini eskilik sarqitlaridan to'la halos qilish uchun kurashuvchi bir qator ijodkorlar yetishib chiqdi. Shu bilan birga keng ijtimoiy qatlamlarning Buyuk fransuz revolyusiyasi natijalaridan hafsalasi pir bo'lishi ham bu yangi davr ijodkorlarining dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatib, "Ozodlik, tenglik va birodarlik" shiorlari ushalmagan orzulgicha qolib ketdi. Hokimiyatni qo'lga kiritgan burjuaziya xalqni ezishni davom ettirdi. Aldangan, orzu - umidlari puchga chiqqan ijodkorlar yangi tartiblarga qarshi norozilik bildirdilar. Shu tariqa san'atda yangi yo'nalish - romantizm paydo bo'ldi va butun XIX asr davomida asosiy oqim bo'lib qoldi. Eng avvalo romantizm san'atni avvalgi davrda badiiy ijodda uchramagan yangi mavzular bilan boyitdi. Insonning ichki dunyosini, ruhiy olamini, his-tuyg'ularini ko'rsatib berish kabilar bunga yorqin misoldir. Oddiy kishilarning g'ururi, ulug'vorligi, ularning orzu-umidlari, mehr-muhabbati, dardi, armonu-alamlari haqida hikoya qiladigan san'at asarlari ko'plab yaratildi. Boshqa san'at turlari bilan bir qatorda musiqqa san'atida ham

muhabbat tuyg'usi bilan bog'liq lirik mavzu asosiy o'rinni egalladi. Bu ishqiy lirik mavzu "qahramonning" ichki dunyosini ochib berishda muhim rol o'ynadi. Romantizm so'zi fransuz tilidan kelib chiqqan bo'lib, "hayol surish" degan ma'noni bildiradi. XIX asr adabiyoti va san'atidagi yetakchi oqim, yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Tabiat mavzusi ham romantik kompozitorlar ijodida katta o'rinni egalladi. Ular tabiat manzaralaridan ilhomlanish, ularni katta mahorat bilan tasvirlash san'atini ham puxta egalladilar. Xalq ertaklari, fantastik voqealar va obrazlar bilan bog'liq mavzular ham romantik kompozitorlar tomondan keng qo'llanilgan.

Romantizm davrida qo'shiq eng keng tarqalgan janrlardan biriga aylandi. Kichik shaklli cholg'u asarlari yaratishga ham katta e'tibor berildi. Bu cholg'u miniatyuralari turli pesalar bo'lishi bilan birga vals, mazurka kabi raqs janrlarini ham kiritish mumkin. XIX asrda mahoratli ijrochilik san'ati (ayniqsa fortepiano va skripka ijrochiligi) rivojlanishi bilan fantaziya, ballada, skerco kabi janrlardagi asarlar yaratildi. Bir qismli simfonik asar – simfonik poema va programmali (dasturli) simfoniya janrlari ham romantizm davri mevalaridir.

Romantizm davrida programmali musiqa asarlari yaratishga katta e'tibor qaratilgan. Dasturli musiqa tinglovchiga asarni to'g'ri tushunish imkoniyatini beradi. Dasturli musiqani keng va tor ma'noda tushunish mumkin. Keng ma'noda dasturli musiqa asari deganda, mazmunini aniqroq yoritish uchun nomusiqiy elementlar - so'z, sahnaviy harakat, raqs yoki adabiy nom kabilardan ham foydalanib yaratilgan musiqa asarlari tushuniladi. Agar bu elementlardan foydalanilmasa musiqa asarini har bir tinglovchi har xil tushunishi mumkin. Chunki hammaning tasavvuri har xil.

Tom ma'noda esa dasturli musiqa deganda romantik kompozitorlar yaratgan adabiy obrazlar va aniq syujet bilan bog'liq cholg'u asarlari tushuniladi. Romantik obrazlarning yangiligi va murakkabligi sababli musiqa asarida dasturning bo'lishi nihoyatda zarur edi. Adabiyot bilan bog'liqlik bir tomondan kompozitorlarga badiiy tasvirning to'g'ri va tushunarli bo'lishi uchun zarur ifoda vositalarini topishga yordam bersa, ikkinchi tomondan tinglovchiga asarni to'g'ri tushunish

imkoniyatini beradi. Demak dasturli musiqa romantik kompozitorlar asarlaridagi obrazli mazmuni boyituvchi va kengaytiruvchi vositadir.

Romantizmning yangi obrazlari bo'lgan lirik-psixologik kayfiyatlar, ertak bilan bog'liq fantastik obrazlar, milliy urf-odatlarini tasvirlash, qahramonona ko'tarinki ruh va boshqa obrazlarni ko'rsatish zarurati musiqa ifoda vositalarining boyishiga sabab bo'ldi. Kuy, garmoniya va tembr go'zalligi eng yorqin ifoda vositasidir. Insonning ichki dunyosi, uning o'zgaruvchan kayfiyatlarini ifodalash uchun kompozitorlar melodiya (kuy) va garmoniyani nihoyatda go'zal va ifodali bo'lishiga erishdi.

Romantizm oqimi musiqa san'atida butun XIX asr davomida yetakchi oqim sifatida rivojlandi. Shu jumladan, F. Shubert, K. M. Veber, F. Mendelson, R. Shuman, F. Shopen, F. List, R. Vagner, I. Brams va boshqa bir qator buyuk kompozitorlar romantizm oqimining yetuk namoyondalaridan hisoblanib, ular o'zlarining serqirra ijodi bilan romantizm oqimi musiqasining yanada gullab yashnashiga ulkan xissalarini qo'shdi.